O‘ZBEKISTONRESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktorining birinchi o‘rinbosari Direktorning birinchi o‘rinbosari

R. Xursanov

2026-yil 17-fevral

“Oilaviy mediatsiya ishlari bo‘yicha fuqarolar yig‘ini raislarini mediatorlikka tayyorlash” o‘quv kursidan yakuniy imtihonini o‘tkazish bo‘yicha

METODIK MATERIALLAR

Metodik materiallar 2026-yil 12-fevralda tasdiqlangan o‘quv dasturiga asoslanib tayyorlangan

© *Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, 2026*

“Oilaviy mediatsiya ishlari bo‘yicha fuqarolar yig‘ini raislarini mediatorlikka tayyorlash” o‘quv kursidan yakuniy imtihonini o‘tkazish bo‘yicha

METODIK KO‘RSATMALAR

“Mediatorlarni tayyorlash” o‘quv kursi bo‘yicha quyidagi talablar qo‘yiladi:

Umumiy malaka talablari

Konstitutsiya va qonunlarimizda belgilangan inson hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari ustuvorligiga rioya qilish mahorati;

Huquq normalarini to‘g‘ri tushunish, uni adolat prinsiplari asosida qo‘llay bilish mahorati;

Huquqiy madaniyat saviyasi va huquqiy tarbiya mahorati ko‘nikmasi;

Yuridik faoliyat jarayonida ishni adolatli hal qilish, insoniylik va qonuniylik omillarini ta’minlaydigan boshqa fazilat hamda shaxsiy sifatlar;

Kasbiy malaka talablari

Qabul qilinayotgan sohaviy yangi qonunlar va amaldagi qonun hujjatlariga kiritilgan oxirgi o‘zgartish va qo‘shimchalarning mazmun-mohiyati, xorijiy mamlakatlarning mediatorlar faoliyatini;

Mediatorlar faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni va ularni bartaraf qilish yo‘llarini bilishi;

O‘zbekiston Respublikasida mediatsiya institutini huquqiy asoslari, uning o‘ziga xos xususiyatlari, mazmuni va mohiyati haqida yaxlit tasavvur qilishni.

Mediatsiyani olib borish texnologiyasi, usullari, stress va nizoli vaziyatlarni boshqarish kerak.

MAVZULAR BO‘YICHA YAKUNIY IMTIHON

Yakuniy imtihon o□quv dasturiga asosan o□tilgan mavzular bo□yicha 2 bosqichni (nazariy bilimlar va amaliy ko□nikmalarni tekshirish) o‘z ichiga oladi:

Nazariy bilimlar – og‘zaki yoki yozma shaklda imtihon olish yo‘li bilan;

Amaliy ko‘nikmalar – nizoli masalalarni mediatsiya jarayonlari imitatsiyasi natijalari bo‘yicha. Yakuniy imtihonni tashkil etish va o‘tkazish uchun Institut direktorining burug‘i bilan komissiya tashkil etiladi. Yakuniy imtihon natijalari komissiya a’zolari tomonidan imzolanadigan qaydnoma varaqalari bilan rasmiylashtiriladi. Yakuniy imtihon tinglovchilar kursga taalluqli barcha materiallarni o‘rgangandan so‘ng o‘tkaziladi.

Yakuniy imtihon jarayonida tinglovchilar bilimini baholash usullari malaka oshiruvchi xodimning bilim darajasi – tanqidiy va tahliliy fikrlash, og‘zaki yoki yozma shaklda o‘z fikrlarini izchil va konstruktiv bayon qilish ko‘nikmalarini aniqlash uchun belgilangan.

Yakuniy imtihon doirasida malaka oshiruvchi xodim:

–tegishli faktlar va muammolarni aniqlash;

–asosiy huquqiy masalalar yuzasidan tanqidiy mushohada yuritish;

–asosiy kasbiy faoliyatiga oid tegishli vaziyatlarini bilish va anglash;

–izchil va konstruktiv ravishda yozma shaklda o‘zlashtirilgan o‘quv materialini, mantiqiy xulosalarni bayon qilish qobiliyatini namoyish etishi lozim.

Yakuniy imtihonni o‘tkazish usuli:

Yakuniy imtihon quyidagi 2 (ikki) bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: nazariy bilimlarini aniqlash – suhbat shaklida;

2-bosqich: amaliy ko‘nikmalarni aniqlash - nizoli masalalarni (keys) mediatsiya jarayonlari imitatsiyasi natijalari bo‘yicha.

Yakuniy imtihonda har bir tinglovchiga savol beriladi. Yakuniy imtihonni suhbat shaklidagi qismini tashkil etish maqsadida har bir savol o‘quv kursining nazariy qismiga oid bo‘ladi.

Suhbat paytida komissiya a’zolari tomonidan o‘tilgan mavzular bo‘yicha qo‘shimcha savollar berilishi mumkin.

Yakuniy imtihonning amaliy ko‘nikmalarini aniqlashdan iborat 2-qismini tashkil etish maqsadida mediatsiya jarayonlari bo‘yicha nizoli masala (keys) yuzasidan javob beriladi.

O‘quv kursi bo‘yicha yakuniy imtihonda tinglovchilar bilimini baholash mezonlari ma’lumotlar o‘quv kursi boshlanishida tinglovchilarga e’lon qilinadi.

Tinglovchilar bilimi va o‘zlashtirish darajasi 100 ballik tizimda baholanadi.

Tinglovchilar belgilangan maksimal ballning **56 foizidan** kam bo‘lmagan ball to‘plaganda maxsus o‘quv kurslarini o‘zlashtirgan hisoblanadi

Yakuniy baholash quyidagicha taqsimlanadi:

Qoniqarsiz		**Qoniqarli**		**Yaxshi**		**A’lo**	
Ball		Ball		Ball		Ball	
Min	Max	Min	Max	Min	Max	Min	Max
0	**55**	**56**	**70**	**71**	**85**	**86**	**100**

Tinglovchilar bilimini baholashda hamda mos ravishda fan (kurs)ni o‘zlashtirish reyting ko‘rsatkichini aniqlashda tinglovchining har bir nazorat turi bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va kompetensiyalari quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

a) **86 – 100 foiz** olish uchun tinglovchi:

fan (kurs) dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;

terminologiyadan aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;

muammoli savollarni aniqlashi, o‘z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;

fan (kurs)ning tayanch tushunchalarini bilishi;

nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko‘rsata olishi;

amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi va kompetensiyalarni to‘liq egallashi;

amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;

fan (kurs) dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni to‘liq va chuqur o‘zlashtirishi;

o‘rganilayotgan fan (kurs) bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish;

mashg‘ulotlarda o‘qish davri mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim.

b) **81 – 85 foiz** olish uchun tinglovchi:

fan (kurs) dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;

terminologiyadan aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;

o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;

fan (kurs)ning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;

standart vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;

amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda to‘liq bajara olishi va kompetensiyalarni to‘liq egallashi;

amaliy mashg‘ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olishi;

fan (kurs) dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi;

fan (kurs) bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;

mashg‘ulotlarda ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim.

v) **71 – 80 foiz** olish uchun tinglovchi:

fan (kurs) dasturining barcha bo‘limlari bo‘yicha tizimli, to‘la va chuqur bilimga ega bo‘lishi, bir oz kamchiliklar bilan bo‘lsa-da, zarur dalillar bilan asoslay olishi;

terminologiyadan aniq, o‘z o‘rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to‘g‘ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;

o‘z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;

fan (kurs)ning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo‘yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;

standart vaziyatlarda muammolarni o‘quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;

kamchiliklar bilan amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi;

amaliy mashg‘ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;

fan (kurs) dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o‘zlashtirishi;

fan (kurs) bo‘yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;

mashg‘ulotlarda ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo‘lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo‘lishi lozim.

g) **60 – 70 foiz** olish uchun tinglovchi:

davlat ta’lim talablari doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo‘lishi;

terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to‘g‘ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo‘l qo‘yishi;

javob berishga yoki ayrim maxsus ko‘nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, fan (kurs) bo‘yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyishetishi;

amaliy ko‘nikmalarni mustaqil ammo xatoliklar bilan to‘liq bajara olishi; kompetensiyalarni mustaqil, ammo xatoliklar bilan egallashi;

fan (kurs)ning umumiy tushunchalari bo‘yicha qisman bilimga ega bo‘lishi va unistandart vaziyatlarni hal etishda qo‘llay olishi;

pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;

fan (kurs) bo‘yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;

mashg‘ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim.

d) **56 – 59 foiz** olish uchun tinglovchi:

davlat ta’lim talablari doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo‘lishi;

terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to‘g‘ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yishi;

javob berishga yoki ayrim maxsus ko‘nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va xatolarga yo‘l qo‘yganda, fan (kurs) bo‘yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;

amaliy ko‘nikmalarni mustaqil emas va xatoliklar bilan to‘liq bajara olishi; kompetensiyalarni mustaqilegallay olmasligi;

fan (kurs)ning umumiy tushunchalari bo‘yicha qisman bilimga ega bo‘lishi va unistandart vaziyatlarni hal etishda qo‘llay olishi;

pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;

fan (kurs) bo‘yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo‘nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;

mashg‘ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo‘lishi lozim.

e) **0 – 55 foiz** deb baholanadi, agar tinglovchi:

davlat ta’lim talablari doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo‘lsa;

terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo‘pol mantiqiy xatolarga yo‘l qo‘ysa yoki umuman javob bermasa;

mashg‘ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo‘lsa yoki umuman bajarmasa;

amaliy ko‘nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo‘lmasa, o‘z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to‘g‘rilay olmasa.

“Oilaviy mediatsiya ishlari bo‘yicha fuqarolar yig‘ini raislarini mediatorlikka tayyorlash” o‘quv kursidan yakuniy imtihonini o‘tkazish uchun
SAVOLLAR

1. O‘zbekiston Respublikasida mediatsiyaning huquqiy asoslari
2. Mediatsiya tushunchasi va ahamiyati
3. Mediatsiya prinsiplari va ularning ahamiyati
4. Mediatsiyada maxfiylik prinsipining mohiyati va mazmuni
5. Mediatsiyada ixtiyoriylik prinsipining mohiyati va mazmuni
6. Mediatsiyada hamkorlik prinsipining mohiyati va mazmuni
7. Mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsipining mohiyati va mazmuni
8. Mediatsiyani qo‘llash sohalari
9. Mediatsiya to‘g‘risidagi qonunchilik bilan tartibga solinadigan munosabatlar
10. Mediatsiyada axborot texnologiyalari yutuqlari va sun□iy intellektdan foydalanish qoidalari, onlayn mediatsiya o□tkazish tartibi
11. Mediatsiya taraflarining huquq va majburiyatlari
12. Mediator sifatida ishtirok eta olmaydigan shaxslar
13. Mediatorning faoliyatini to□xtatib turish yoki tiklash
14. Mediatorning huquqlari
15. Mediatorning majburiyatlari
16. Mediatorning kasbiy ko‘nikmalari, etikasi va javobgarligi
17. Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish muddati
18. Mediatorning faoliyatiga haq to□lash
19. Mediatsiyaning tugatilishi
20. Mediatsiyani qo‘llash chog‘idagi cheklovlar
21. Mediatsiyaga oid ma’lumotlarning maxfiyligi
22. Mediativ kelishuvning shakli va mazmuni
23. Mediativ kelishuvni ijro etish
24. Mediatsiya bosqichlari
25. Mediatsiyaning “tayyorgarlik bosqichi”: tushuncha, asosiy jihatlar va ahamiyati
26. Mediatsiyaning “mediatorning kirish so‘zi” bosqichi: tushuncha, asosiy jihatlar va ahamiyati
27. Mediatsiyaning “taraflar pozitsiyasini bayon etishi” bosqichi: tushuncha, asosiy jihatlar va ahamiyati
28. Mediatsiyaning “muhokama va yechim izlash” bosqichi: tushuncha, asosiy jihatlar va ahamiyati
29. Mediatsiyaning “kelishuv tuzish” bosqichi: tushuncha, asosiy jihatlar va ahamiyati
30. Mediatorda empatiya tushunchasi, turlari va ahamiyati
31. Mediatsiyada idrok va kommunikatsiya
32. Mediatsiya jarayonida noverbal muloqot tushunchasi va ahamiyati
33. Mediatsiya jarayonida verbal muloqot tushunchasi va ahamiyati
34. Mediatsiya jarayonida taraflarning pozitsiyasi va manfaatlari tushunchasi va ahamiyati
35. Mediatsiya metodlari: tushuncha, turlari va ahamiyati
36. Mediatsiya metodining mazmuni: “Qo‘shma sessiya”
37. Mediatsiya metodining mazmuni: “Alohida uchrashuv (caucus)”
38. Mediatsiya metodining mazmuni: “Aqliy hujum (brainstorming)”
39. Mediatsiya metodining mazmuni: “Fasilitatsiya (yordam/ko‘mak)”
40. Mediatsiya metodining mazmuni: “Manfaatlarga yo‘naltirish”
41. Mediatsiya usullari (priyomlari): tushuncha, turlari va ahamiyati
42. Mediatsiya priyomlarining mazmuni: “Faol tinglash”

43. Mediatsiya priyomlarining mazmuni: “Reframing (qayta romkalash)”

44. Mediatorning kommunikativ ko‘nikmasi sifatida reframing mohiyati va misollari

45. Mediatsiya priyomlarining mazmuni: “Manfaatlarni aniqlash va aniqlashtirish”

46. Fuqaroviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarda mediatsiya: qo‘llanish sohasi va afzalliklari

47. Oilaviy mediatsiyada hal etiladigan masalalar. Oilaviy mediatsiyadagi taraflar

48. Mediatsiya jarayonida bolalar bilan bog‘liq hal etiladigan masalalar

49. Meros nizolarini mediatsiyada hal etishda ko‘tariladigan savollar

“Mediatorlarni tayyorlash” o‘quv kursidan yakuniy imtihonini o‘tkazish uchun KEYSLAR

1. Keys: “Tayyorgarlik”

Vaziyat: Tijorat masalasida nizo bo'yicha mediatsiya qilishdan oldin, bir tomon boshqa tomonga aloqa ma'lumotlarini berishdan bosh tortadi.

Savol: Mediator nima qilishi kerak?

Javob: Mediator konfidensiallikni hisobga olgan holda uchrashuv tashkil etish uchun axborot almashish zarurligini tushuntirishi kerak.

2. Keys: “Mediatsiyaning ochilishi”

Vaziyat: Birinchi uchrashuvda tomonlar bir-birlariga xalaqit berishadi.

Savol: Mediator qanday harakatlarni amalga oshiradi?

Javob: Tomonlardan muloqot qilish qoidalariga rioya qilishni so'rang - navbatma-navbat gapiring, boshqa tomonning fikrini hurmat qiling, gapni bo'lmang.

3. Keys: “Qiziqishlarni aniqlash”

Vaziyat: Ijara nizosida bir tomon ijara haqini kamaytirishni talab qiladi, ikkinchisi rad etadi.

Savol: Mediatorning harakatlarini aniqlang.

Javob: Haqiqiy manfaatlarni aniqlash uchun ochiq savollar bering (masalan, ijarachining moliyaviy qiyinchiliklari, uy egasining uzoq muddatli mijozni saqlab qolish istagi).

4. Keys: “Yashirin manfaatlarni aniqlash”

Vaziyat: Qo'shma yig'ilishda tomonlar nizoning moliyaviy qismini muhokama qilishdan qochadi, lekin alohida yig'ilishda (kokus) to'lovni kechiktirganligi sababli obro'sini yo'qotishdan qo'rqishini tan oladi.

Savol: Mediator ushbu ma'lumotdan qanday foydalanishi kerak?

Javob: Mediator qo‘shma yig‘ilishda maxfiylikni saqlagan holda muammoga bilvosita bog‘liq bo‘lgan savollarni berishi mumkin.

5. Keys: “Qo‘shnilar o‘rtasidagi nizo”

Vaziyat: Kechqurun qo'shnilar baland musiqa haqida bahslashadi. Ulardan biri tungi smenada ishlaydi va kunduzi uxlaydi, ikkinchisi esa ziyofat uyushtiradi.

Savol: Mediator yechimga qanday yondashishi mumkin?

Javob: Mediator tomonlarga rejimni muhokama qilish va o'zaro maqbul echim topishga yordam beradi: tinch vaqtni belgilash, ovoz o'tkazmasligi yoki voqealar sanasini kelishish.

6. Keys: “Variantlarni baholash”

Vaziyat: Tomonlar bir nechta echimlarni taklif qilishadi, lekin tanlay olmaydilar.

Savol: Biz ularga qaror qabul qilishda qanday yordam bera olamiz?

Javob: Variantlarni mezonlarga ko'ra solishtiring - qonuniylik, amalga oshirish mumkinligi, har ikki tomonning qoniqishi.

7. Keys: “Shartnoma tuzish”

Vaziyat: Tomonlar og'zaki kelishib oldilar, ammo shartlarni yozma ravishda yozib olishni xohlamaydilar.

Savol: Mediator nima qiladi?

Javob: Yozma kelishuvning afzalliklarini tushuntiring va tomonlar imzolaydigan hujjatni tuzishga yordam bering.

8. Keys: “Ijro nazorati”

Vaziyat: Mediatsiyadan so'ng tomonlar kelishuvlarning bajarilishiga shubha qilishadi.

Savol: Shartlarni buzish xavfini kamaytirish uchun vositachi nimani taklif qilishi mumkin?

Javob: Shartnomaga aniq muddatlarni, nazorat mexanizmlarini va bajarilmasligi oqibatlarini kiriting.

9. Keys: “Hissiy portlash”

Vaziyat: Oilaviy nizoni vositachilik qilishda tomonlardan biri baqirib, raqibni aldashda ayblay boshlaydi.

Savol: Ushbu bosqichda mediator nima qilishi kerak?

Javob: Pauzani taklif qilish, tomonlarga hurmat bilan muloqot qilish qoidalarini eslating, tomonlarni keskinlashuvdan chalg'iting, so'ngra xotirjam rejimda munozaraga qayting.

10. Keys: “Mediatsiyani tark etish tahdidi”

Vaziyat: Tijoriy nizoda bir tomon: “Men ketaman, biz hali ham kelishuvga erisha olmaymiz” deb e'lon qiladi.

Savol: Mediator qanday harakat qilishi kerak?

Javob: Alohida qisqa yig'ilish (kokus) o'tkazishni taklif qiling, norozilik sabablarini aniqlang, muzokaralarni davom ettirishga imkon beradigan shartlarni muhokama qiling.

11. Keys: “Maxfiylikni buzish’

Vaziyat: Mediatsiya paytida bir tomon ikkinchisi muzokaralar tafsilotlarini uchinchi shaxslarga oshkor qilgani haqida xabar beradi.

Savol: Mediator qanday harakatlar qiladi?

Javob: Mediator faktlarga aniqlik kiritadi, ishtirokchilarga maxfiylik tamoyilini eslatadi, tomonlarning qoidalarga rioya qilgan holda jarayonni davom ettirish haqidagi kelishuvini qayd etadi.

12. Keys: “Qaror qabul qilish bosqichida boshi berk ko‘cha”

Vaziyat: Tomonlar barcha masalalarni muhokama qilishdi, biroq bitta asosiy masala bo'yicha kelisha olishmadi.

Savol: Mediator nimani taklif qilishi mumkin?

Javob: Mediator murosa topish uchun muqobil variantlarni ishlab chiqishni, tomonlarning ustuvorliklarini tekshirishni va “agar bo‘lsa” stsenariylarini sinab ko'rishni taklif qilishi mumkin.

13. Keys: “Bola bilan uchrashuv haqida bahs”

Vaziyat: ajrashgandan so'ng, ota har hafta o'g'lini ko'rishni xohlaydi, onasi buni juda tez-tez deb hisoblaydi.

Savol: Mediator nizoni hal qilishda qanday yordam berishi mumkin?

Javob: Vositachi har ikki tomonning haqiqiy ehtiyojlari va tashvishlarini bilib oladi, agar u etarlicha yosh bo'lsa, bolaning fikrini hisobga olgan holda tuzatilishi mumkin bo'lgan uchrashuvlar jadvalini taklif qiladi.

14. Keys: “**Ajralishdan keyin mulkni taqsimlash”**

Vaziyat: Er-xotin ajrashishdi va ular hali ham birgalikda sotib olgan kvartiraga ega. Er uni sotishni talab qiladi, xotin buni bolalarga qoldirishni xohlaydi.

Savol: Mediator nizoni hal qilishning qanday variantlarini taklif qilishi mumkin?

Javob: 1) aktsiyani qisman sotib olish; 2) boshqa uyga almashtirish; 3) daromadlarni taqsimlash bilan kvartirani ijaraga berish; 4) aliment to'lashdan bosh tortgan taqdirda, kvartirani bolaning nomiga ro'yxatdan o'tkazish.

15. Keys: “Bolaning yashash joyi bo'yicha nizo”

Vaziyat: ajrashgandan so'ng, turmush o'rtoqlar bolaning yashash joyi haqida bahslashadilar. Ota u bilan, onasi o'zi bilan yashashni talab qiladi.

Savol: Mediator tomonlarga kelishuvga erishishda qanday yordam berishi mumkin?

Javob: Qiziqishlarni aniqlang (bola uchun barqarorlik, ikkala ota-onaning ishtiroki), variantlarni taklif qiling - ona bilan yashash, ota bilan muntazam uchrashuvlar va maktab faoliyatida birgalikda ishtirok etish.

16. Keys: “Qayta-qayta keskinlashuv”

Vaziyat: Har bir marta asosiy masalani muhokama qilishga urinish baland ovozli gaplar va janjal bilan tugaydi.

Savol: Mediator ish jarayonini qanday o‘zgartirishi mumkin?

Javob: Muqobil formatni taklif etishi mumkin – masalan, takliflarni yozma shaklda qayd etish va ularni navbat bilan o‘qib eshittirish, bu orqali hissiy taranglikni kamaytirish mumkin.

17. Keys: “Yangi qattiq talablar”

Vaziyat: Muhokama davomida taraflardan biri kutilmaganda ma’naviy zararni qoplash uchun katta miqdorda kompensatsiya talab qiladi.

Savol: Mediator nima qilishi kerak?

Javob: Yangi talabni qayd etib, uning sababini aniqlaydi, bu masalani vaqtincha chetga surishni va taraflar kelishgan bandlar bo‘yicha ishni davom ettirishni taklif qiladi.

18. Keys: “Ko‘pchilik bosimi”

Vaziyat: Uch tomonli mediatsiyada ikki taraf uchinchi tarafni o‘z shartlariga ko‘ndirish uchun faol bosim o‘tkazmoqda.

Savol: Mediatorning vazifasi qanday? Qaysi tamoyilni eslatish kerak?

Javob: Balansni tiklash va bosimni kamaytirish. Mediatsiyaning asosiy tamoyili – taraflarning teng huquqliligini eslatish.

19. Keys: “Muhokama va yechim izlash”

Vaziyat: Ikki tadbirkor uskunalarni yetkazib berish muddatlari haqida bahslashmoqda. Mediator yetkazib berish jadvali va to‘lov shartlarini ishlab chiqishda yordam beradi. Natijada taraflar ikkalasiga ham mos keladigan kelishuvga erishadi.

Savol: Mediator taraflarga takliflar berishga haqlimi?

Javob: Ha, agar bu taraflarning kelishuviga erishishiga yordam bersa.

20. Keys: “Mediatsiya usuli”

Vaziyat: Tijorat nizosi bo‘yicha mediatsiya jarayonida taraflardan biri ikkinchisini doimiy ravishda bo‘lib qo‘yadi. Mediator quyidagi iboralarni ishlatadi: “To‘g‘ri tushunyapmanmi, siz shuni aytmoqchisiz…?”, “Ya’ni siz nazarda tutyapsizki…?”

Savol: Mediator qaysi usuldan foydalandi?

Javob: “Faol tinglash” usuli – e’tibor berish, pozitsiyani aniqlashtirish va taranglikni kamaytirishga yordam beradi.

21. Keys: “Mediatsiya usuli”

Vaziyat: Taraflardan biri shunday deydi: “U doim kechikadi va muddatlarni buzadi!”. Mediator qayta ifodalaydi: “Siz uchun majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarilishi juda muhim”.

Savol: Mediator qaysi usulni qo‘lladi?

Javob: “Reframing” – salbiy iboralarni neytral va konstruktiv shaklga o‘tkazish usuli.

22. Keys: “Kvartirani bo‘lish bo‘yicha nizo”

Vaziyat: Ikki aka-uka ota-onalarining kvartirasini bo‘la olmayapti.

Savol: Mediator qanday variantlarni taklif qiladi?

Javob: 1) kvartirani sotib, pulni bo‘lib olish; 2) birodarlardan biri ikkinchisining ulushini sotib olishi; 3) kvartirani ijaraga berib, daromadni bo‘lish.

23. Keys: “Qo‘shnilar nizosi”

Vaziyat: Qo‘shnilar tunda shovqin bo‘layotgani uchun bir-biridan shikoyat qilmoqda.

Savol: Mediator muammoni qanday hal qiladi?

Javob: Konstruktiv muloqotni tashkil qiladi, shovqinli tadbirlar o‘tkazish vaqti bo‘yicha kelishuvga yordam beradi.

24. Keys: “Ish haqi kechiktirilishi”

Vaziyat: Xodim ish haqining kechiktirilganidan shikoyat qilmoqda, ish beruvchi esa moliyaviy qiyinchiliklarni aytmoqda.

Savol: Mediator nima qilishi kerak?

Javob: Mediator suhbatni tashkil qiladi, shunda tomonlar to'lovning real shartlarini, mumkin bo'lgan qisman to'lovlarni muhokama qilishlari va qarzni to'lash jadvalini kelishib olishlari mumkin.

25. Keys: “Eskalatsiyani oldini olish”

Vaziyat: Taraflar charchagan, emotsiyalar kuchaygan, e’tibor susaygan.

Savol: Mediator nima qilishi kerak?

Javob: Uchrashuvda tanaffus e’lon qilib, taraflarga hissiy muvozanatni tiklash va muhokamani sokin sharoitda davom ettirish imkonini berishi kerak.

26. Keys: “Biznes hamkorlari o‘rtasida nizo”

Vaziyat: Ikki hamkor foydani bo‘lishish haqida tortishmoqda: biri ko‘proq mehnat qilganini, ikkinchisi esa sarmoya teng bo‘lganini aytmoqda.

Savol: Mediator bu nizoni qanday hal qiladi?

Javob: Mediator har birining hissasini qayd etadi, foydani hisoblashning shaffof qoidalarini muhokama qiladi va kerak bo‘lsa, kompaniyadagi ulushlarni qayta ko‘rib chiqishni taklif qiladi.

27. Keys: “Hamkasblar o‘rtasida nizo”

Vaziyat: Bir bo‘lim xodimlari doimiy bahslashib, jamoa ishiga halal bermoqda. Rahbar ulardan birini boshqa bo‘limga o‘tkazishni xohlamoqda, lekin ikkalasi ham bunga qarshi.

Savol: Mediator qanday yechimlarni taklif qilishi mumkin?

Javob: Mediator taraflarga nizoning sabablarini ochiq muhokama qilishni, tushunmovchiliklarni bartaraf etishni, yangi o‘zaro hamkorlik qoidalarini yoki vazifalarni qayta taqsimlashni taklif qilishi mumkin.

28. Keys: “Reframing usuli”

Vaziyat: Tijorat nizosida mijoz shunday deydi: “Siz ataylab yetkazib berishni kechiktirdingiz, shartnomamizni buzish uchun!”.

Savol: Tarafning bu bayonotini emotsional ayblovdan konstruktiv ifodaga qayta shakllantiring.

Javob: “Sizningcha, yetkazib berishdagi kechikish shartnoma bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi va siz kelajakda bunday holatlarning oldini olish yo‘llarini muhokama qilmoqchisiz.”

29. Keys: “Ijarachi va ijaraga beruvchi o‘rtasidagi nizo”

Vaziyat: Ijarachi to‘lovni kechiktirmoqda, ijaraga beruvchi shartnomani bekor qilish bilan tahdid qilmoqda.

Savol: Mediator nima taklif qilishi mumkin?

Javob: Yangi to‘lov jadvali tuzish, kafillik (zalog) yoki vaqtinchalik chegirmalarni nazarda tutish.

30. Keys: “Ma’lumotni oshkor qilish”

Vaziyat: Jarayon boshlanishidan oldin taraflardan biri mediatorsiz, oldindan, boshqa tarafning pozitsiyasi tafsilotlarini aytib berishni so‘raydi.

Savol: Mediator qanday yo‘l tutishi kerak?

Javob: Mediator maxfiylik tamoyiliga rioya etishi va ikkinchi tarafning roziligisiz uning ma’lumotlarini oshkor qilmasligi shart. U faqat tafsilotlar qo‘shma uchrashuvda muhokama qilinishini tushuntirishi mumkin.

31. Keys: “Mediatorning roli”

Vaziyat: Taraflardan biri mediatsiya nima ekanini tushunmaydi va mediator sudyadek majburiy qaror chiqaradi deb o‘ylaydi.

Savol: Tayyorlov bosqichida mediatorning vazifasi nima?

Javob: Jarayon mohiyatini tushuntirish, mediator qaror chiqarmasligini, balki taraflarga o‘zaro maqbul kelishuvni o‘zlari ishlab chiqishda yordam berishini ta’kidlash.

32. Keys: “Mediativ kelishuv mazmuni”

Vaziyat: Taraflar kompensatsiya to‘lashga kelishdi, lekin kelishuvda aniq muddatlar va to‘lov usuli ko‘rsatilmagan.

Savol: Kelishuv imzolanishidan oldin mediator nima qilishi kerak?

Javob: Matnda aniq muddatlar, summalar va to‘lov usulini belgilab, keyinchalik turlicha talqin va bajarishda muammolar oldini olish.

33. Keys: “Taraflar manfaatlari”

Vaziyat: Biznes hamkorlari foydani taqsimlash ustida tortishmoqda: biri foydani kompaniyaga reinventsiya qilishni, boshqasi esa shaxsiy kreditlarini yopish uchun dividend olishni istaydi.

Savol: Bu vaziyatda taraflarning manfaatlari qanday?

Javob: Bir tomon – biznesning uzoq muddatli o‘sishi, ikkinchisi – shaxsiy moliyaviy barqarorlik.

34. Keys: “Mediativ kelishuvning qonuniyligini ta’minlash”

Vaziyat: Taraflar kelishuvga qonunga zid shartni kiritmoqchi.

Savol: Mediator qanday yo‘l tutishi kerak? Nima taklif qilishi mumkin?

Javob: Shartlar qonunlarni buzmasligi lozimligini tushuntirish, formulirovkani o‘zgartirish yoki noqonuniy bandni chiqarib tashlashni taklif etish.

